



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№14 (824), 2026-yil 30-iyul

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Xushxabar

QUVONDIQ SANAQULOV ROSSIYA MUHANDISLIK AKADEMIYASINING XORIJIY A'ZOSI (AKADEMIGI) ETIB SAYLANDI



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori, texnika fanlari doktori, professor Quvondiq Sanaqulov Rossiya Muhandislik akademiyasining xorijiy a'zosi (akademigi) etib saylandi.

Rossiya Muhandislik akademiyasi-ning faoliyati muhandislik fanlarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, muhandislik ta'limini takomillashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda yuqori texnologiyali iqtisodiyotni shakllantirish hamda ana shu yo'nalishlarda xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Rossiya Muhandislik akademiyasiga a'zolik (akademiklik) eng yuqori ilmiy-muhandislik e'tiroflaridan hisoblanadi. Akademiyaga muhandislik sohasida ulkan ilmiy va amaliy natijalarga erishgan, yangi texnologiyalar yaratgan, ishlab chiqarishga yuqori samarali innovatsiyalarni joriy etgan, mamlakat sanoati va muhandislik fanlari rivojiga salmoqli hissa qo'shgan insonlar saylanadi. Akademik unvoni muhandislik sohasidagi ulkan xizmatlari, ilmiy maktab yaratish, muhim texnologik yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirishdagi katta shaxsiy hisssasi uchun beriladi.

Xorijiy davlatlar olimlari uchun esa xorijiy a'zo (akademik) maqomi joriy etilgan. Bu unvon jahon ilm-fani, mu-

handislik, ta'lim va innovatsion texnologiyalar rivoji va xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan muhandis-olimlarga beriladi.

Quvondiq Sanaqulov Rossiya Muhandislik akademiyasining xorijiy a'zosi (akademigi) etib saylandi. Bu, nafaqat olimning ko'p yillik samarali ilmiy va muhandislik faoliyatiga berilgan yuksak baho, balki O'zbekiston muhandislik maktabi, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida shakllangan ilmiy salohiyat va boy tajribaning xalqaro miqyosda e'tirof etilganining yorqin namunasidir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti jamoalarining vakillari, Quvondiq Sanaqulovning hamkasblari uni Rossiya Muhandislik akademiyasining xorijiy a'zoli (akademikligi)ga saylanganligi bilan tabrikladilar.

Taniqli olim Quvondiq Sanaqulov Tabiat va jamiyat fanlari xalqaro akademiyasi, Yevroosiyo konchilik fanlari akademiyasi, Turon fanlar akademiyasi akademigi, shuningdek, Avstriyaning Vena universiteti hamda Rossiyaning Ural federal universiteti faxriy professori unvonlariga ham ega.

■ Bitiruvchi – 2026

DIPLOMLAR TOPSHIRILDI



Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida 2025-2026-o'quv yili bitiruvchilariga diplom topshirishga bag'ishlangan “Oq yo'l sizga, aziz bitiruvchilar!” nomli bayram tadbiri o'tkazildi.

Tantanali tadbirda “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov bitiruvchi yoshlarni tabrikladi va ularga kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tiladi. Bugungi kunda universitetda 11 ming nafarga yaqin talaba tahsil olmoqda. 300 nafardan ortiq professor-o'qituvchi 24 ta bakalavriat va 23 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim bermoqda. Yaqinda universitet

dunyoning “TOP-1000” talik universitetlari ro'yxatidan o'rin oldi, 6 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Mazkur oliy ta'lim muassasasini bu yil tugatgan 1 ming 531 nafar talaba bakalavr va 88 nafar yosh magistr darajasini oldi. Bitiruvchilarning asosiy qismi Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga ishga joylashtirilishi rejalashtirilgan.

Mansur HUSANOV.

■ O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti xodimlari kuniga

MATONATLI KASB EGALARI

Yo'l – bu taraqqiyot, yangilanish va rivojlangan jamiyat timsolidir. Agar daryolar tabiatning qon tomirlari bo'lsa, temir yo'llar mamlakat iqtisodiyotining qudratli arteriyalari hisoblanadi. Ular orqali yuklar tashiladi, uzoq masofalar yaqinlashadi, shaharlar va sanoat markazlari o'zaro bog'lanadi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining eng muhim bo'g'inlaridan biri Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Temir yo'l transporti boshqarmasidir. Bugun mazkur jamoa o'zining 60 yillik sharaflari bilan yurtimiz sanoat solnomasida munosib o'rin egallab turibdi. Bu davr Qizilqum bag'ridan boyliklarni o'zlashtirish, yangi shaharlar barpo etish, mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlash yo'lida xizmat qilgan insonlar taqdirining ajralmas qismidir.

1966-yilda asos solingan mazkur boshqarma asr mo'jizasi deya e'tirof etilgan – “Muruntov” oltin koni o'zlashtirilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Oltin qazib olish koni, gidrometallurgiya zavodi, suv inshootlari va yangi shahar qurish kabi ulkan bunyodkorliklarni temir yo'l transportisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda Temir yo'l transporti



boshqarmasi eng zamonaviy harakat tarkibiga, yuqori texnologiyali uskunalarga va o'z kasbining haqiqiy ustalari bo'lgan malakali mutaxassislarga ega qudratli sanoat tizimiga aylandi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan modernizatsiya va mahalliyashtirish ishlari tufayli ma'dan tashish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etyapti.

MODERNIZATSIYA VA MAHALLIYLASHTIRISH YO'LIDAN

Temir yo'l transporti boshqarmasida turli kasb egalari mehnat qilmoqda. Jamoa mehnatsevarligi hamda ishga professional tarzda yondashishi bi-

lan ishlab chiqarish vazifalari so'zsiz bajarilib, yuqori sifatli Qizilqum oltinini ishlab chiqarilishiga munosib hissa qo'shyapti.

Korxonada amalga oshirilgan investitsion loyihalar o'zining ijobiy samarasini berib kelmoqda. Jumladan, 2021-yil oktabr oyidan Navoiy kon-metallurgiya kombinati tarixida birinchi bor Temir yo'l transporti boshqarmasi Yo'l xizmatining yangi tashkil etilgan uchastkasi yordamida “Balpantov” va “Tomdibuloq” konlari negizida qazib olish karyerini qurish” investitsiya loyihasi doirasida temir yo'l uski qismi qurilish ishlarini amalga oshirish boshlandi. 2022-yilda “Balpantov” va “Tomdibuloq” konlari uchun uzunligi 35 kilometr temir yo'l uski qismi va 9 ta

strelkali o'tkazgichlar yotqizildi.

O'sha yili “Muruntov koni negizida qazib olish karyerini rivojlantirish V navbati” investitsiya loyihasi doirasida qo'shimcha 600 metr uzunlikdagi temir yo'l va 2 ta strelkali o'tkazgich jamlanmasi qurilib, foydalanishga topshirildi. “Chuqurquduq” koni investitsiya loyihasi doirasida 5 kilometrdan ortiq temir yo'l va 13 ta strelkali o'tkazgich yotqizilib, markazlashtirish, boshqarish va aloqa qurilmalari bilan jihozlandi. 2023-yilda “Turbay – 3-gidrometallurgiya zavodi” investitsiya loyihasi doirasida qisqa vaqt ichida 47 kilometr temir yo'l va 9 komplekt strelkali o'tkazgichlar qurib, foydalanishga topshirildi;

Davomi 3-betda ➡

■ Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

XALQARO E'TIROF SARI YUZLANAYOTGAN OLIY TA'LIM MASKANI

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida o'zining mustahkam o'rni, boy ilmiy salohiyati va ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyalashgan ta'lim modeli bilan ajralib turadigan oliy ta'lim muassasalaridan biri – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro akademik maydonda ham nufuzli ilm-ma'rifat maskan hisoblanadi.

Universitetda konchilik, metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlari uchun yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlanadi. So'nggi yillarda ta'lim yo'nalishlari qamrovi kengayib, qishloq xo'jaligi, qurilish, sun'iy intellekt, moliya, atrof-muhit muhandisligi kabi zamonaviy va istiqbolli sohalar ham oliygoh faoliyatining muhim yo'nalishi bo'ldi. Natijada universitet zamon talablari va mehnat bozori ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlaydigan yirik ilmiy-ta'lim markaziga aylandi.

Ma'lumki, Navoiy davlat konchilik instituti 1995-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'tgan o'ttiz yil davomida mamlakatimiz sanoati rivojiga ulkan hissa qo'shayotgan minglab muhandis va mutaxassislarni yetishtirdi. 2022-yilda mazkur ta'lim dargohiga Yangi O'zbekiston islohotlari jarayonida universitet maqomi berilishi muassasa tarixida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi.

2025–2026-o'quv yilida universitet tashkil etilganining 30 yillik tantanalari keng nishonlandi. Mazkur o'quv yilining eng muhim voqealaridan biri – Zarafshon shahrida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Zarafshon fakulteti ish boshladi va yangi bino faoliyati yo'lga qo'yildi. Zamonaviy talablar asosida jihozlangan ushbu fakultetda 500 nafardan ortiq talaba tahsil oldi. Mazkur o'quv maskanining ishga tushirilishi, avvalo, olis hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, Zarafshon shahri, Uchquduq va Tomdi tumanlari yoshlari uchun ortiqcha vaqt va mablag' sarflamasdan zamonaviy bilim olish imkoniyati yaratildi. Bu esa hududlarda oliy ta'lim qamrovini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim qadamdir.

Bugungi kunda universitet tarkibida Energomexa-



nika, Konchilik, Kimyo-metallurgiya, Agromuhandislik va kommunikatsion texnologiyalar hamda Zarafshon fakultetlari faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta'lim muassasasida jami 300 nafardan ortiq professor-o'qituvchi 11 ming nafarga yaqin talabayo'shlarga saboq berib, bugungacha 24 ta bakalavriat ta'lim dasturi hamda 23 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlangan bo'la, endilikda ular soni yanada ko'payadi. Kelgusi o'quv yilidan boshlab ta'lim yo'nalishlari ko'lamini “Dasturiy injiniring” hamda “Transport vositalari muhandisligi” (kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida) bakalavriat dasturlarini, shuningdek “Sun'iy intellekt” (kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida) magistratura mutaxassisligi bilan kengaymoqda. Mazkur yo'nalishlarning joriy etilishi sanoatning raqamli transformatsiyasi, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan yanada yaqinlashtirish, talabalarni amaliy faoliyatga puxta tayyorlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislarni yetishtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu maqsadda “Dual ta'lim” tizimi asosida kadrlar tayyorlash ishlari yangi bosqichga olib chiqildi. Mazkur tizim orqali talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish kor-

xonalarda mustahkamlash, real texnologik jarayonlarda ishtirok etish hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatiga oid zarur tajribani egallash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Yirik sanoat korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalarida universitet kafedralarining filiallarini tashkil etish ishlari izchil davom ettirildi. Bunday hamkorlik ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va korxonalar uchun zarur bo'lgan malakali muhandislarini tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Universitetni 2025-2026-o'quv yilida jami 1600 nafardan ortiq talaba muvaffaqiyatli tamomladi. Ularning qariyb 1000 nafari kunduzgi, qolgan qismi esa sirtqi ta'lim shakli bitiruvchilardir. Davlat va xususiy sektor korxonalari bilan yo'lga qo'yilgan samarali hamkorlik natijasida bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Har qanday zamonaviy universitetning nufuzi, avvalo, uning ilmiy salohiyati bilan belgilanadi. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ham ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy darajali kadrlar sonini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davomi 2-betda ➡

■ Raqamlashtirish

ZAMON BILAN HAMNAFAS

yoki konchilik sohasida avtomatlashtirishning oʻrni

Janubiy kon boshqarmasi ishlab chiqarish hajmi va ish samaradorligini yanada oshirish maqsadida, korxona faoliyatining barcha yoʻnalishlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish boʻyicha qator yirik loyihalar muntazam amalga oshirilmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi asosiy ishlar “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Axborot texnologiyalari boshqarmasi “Zarmitan” axborot kommunikatsiya texnologiyalari markazi hamda kon boshqarmamizning ishlab chiqarishni avtomatlashtirish xizmati tomonidan amalga oshirilmoqda.

“Zarmitan” konida Investitsiya loyihalari asosida “Yer osti kon texnikalari va xodimlarining joylashuvi, ogohlantirish tizimi va aloqa” loyihasi ishga tushirildi. Ushbu loyiha 2025-yili Avstraliya davlatining “Mine Site Technology” (MST) kompaniyasi bilan birgalikda tadbqiq etildi. Tizim turli avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan keladigan maʼlumotlarni yagona platformada birlashtirib, ishlab chiqarish obyektlarining holati, texnologik uskunalarning ish rejimi, yer osti lahimlarda chang, xavfli gazlar miqdori, transport harakati hamda favqulodda vaziyatlar haqida tezkor maʼlumotlarni dispetcherlik xizmatiga taqdim etadi. Bunday yondashuv ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirish, avariyaaviy holatlarga javob qaytarish vaqtini qisqartirish hamda toʻliq va ishonchli maʼlumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Joriy yilning yakuniga qadar “Zarmitan” koni-

da “Yer osti kon texnikalari va xodimlarning joylashuvi, ogohlantirish tizimi va aloqa” loyihasini toʻliq qamrab olish va “Gʻujumsoy” koniga tadbqiq etish rejalashtirilgan.

Yer osti ishchi-xodimlarining xavfsizligini taʼminlash va “Raqamli xavfsiz shaxta” loyihalarini amalga oshirish yoʻnalishi boʻyicha Avstraliyaning “IMS” kompaniyasi bilan birgalikda “Zarmitan” va “Gʻujumsoy” konlari yer osti lahimlarida kon zarbalarini tahlil qilish tizimini oʻrnatish ishlari olib borilmoqda. Bu tizim lahimlarda seysmik oʻzgarish holatlarini tahlil qiladi va oldindan kutilayotgan tiktonik siljishlar haqida maʼlumotlarni olish imkonini beradi.

Investitsiya loyihalari doirasida oʻtgan yili “Zarmitan” konida Markaziy Osiyoda yagona – 1000 metr chuqurlikka ega boʻlgan “Skipli” shaxta stvoli ishga tushirildi. Shaxta koʻtarish mashinalarini boshqarish tizimlari toʻliq avtomatlashtirilgan boʻlib, ish jarayonida ishchi-xodimlar



va texnika vositalari xavfsizligini toʻliq taʼminlaydi. “Skipli” stvolining +240 metr sathida konning miqdorlagich majmuasi (dozator kompleks) qurilgan. Maʼdanlarni +240 metr sathdan yer yuziga olib chiqarish “Dozalarni avtomatik boshqarish-AUD-Dnepr” tizimi orqali boshqariladi. Tizim smena davomida siklar soni va olib chiqilgan maʼdanining miqdorini hisoblab boradi. Har bir

masinist va yer osti ishchi xodimi tomonidan bajariladigan harakatlar elektron xotira qurilmalarida saqlab boriladi.

Hozirgi kunda 10-shaxtaning +600 metr sathida “Berk” stvolini qurish ishlari davom etmoqda. Stvolning shaxta-koʻtarish mashinasini boshqarish tizimlari toʻliq avtomatlashtirilgan boʻlib, raqamli texnologiyalar asosida boshqariladi. Ob-

yektda aloqa va signalizatsiya tizimlari raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan.

Kelgusida Janubiy kon boshqarmasi konlarida “Raqamli xavfsiz kon” tizimini toʻliq tatbiq etib, ishlab chiqarishni boshqarish dispetcherlik markazini tashkil etish orqali SCADA tizimlari va texnologik jarayonlarni markazlashtirilgan monitoring qilib borish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, konlarni shamollatish nasos stansiyalarini avtomatlashtirish, aerogaz nazorati, elektrovoz-larni va tebranmali eltuvchi yuklash qurilmalarini masofadan boshqarish hamda “Aqlli klet” tizimlarini ishga tushirish ishlari amalga oshirilmoqda.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan ishlab chiqarishni raqamlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish dasturi kelgusida IT infratuzilmani yanada rivojlantirish, xodimlarning raqamlashtirish yuzasidan savodxonligini oshirishni ham oʻz ichiga oladi. Raqamlashtirish loyihalari amalga oshirilganidan soʻng mahsulot sifati va hajmi oshdi, foyda miqdori sezilarli darajada koʻpaydi, xodimlarning ish yuklamasi kamaydi. Bundan tashqari, maʼlumotlarning tartibga solinganligi va shaffofligi tufayli korxonaning xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatlari oshib, xalqaro loyihalarda ishtirok etishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Toʻliqin NIZOMOV,
Janubiy kon boshqarmasi bosh
muhandisi.

■ Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

XALQARO EʼTIROF SARI YUZLANAYOTGAN OLIY TAʼLIM MASKANI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda universitetda DSc ilmiy darajasiga ega professor-oʻqituvchilar 50 nafarga, PhD ilmiy darajasiga ega pedagoglar soni 190 nafarga yaqinlashdi. Natijada universitet professor-oʻqituvchilar jamoasi ilmiy darajasi 65 foizdan oshdi.

Universitetning ilmiy salohiyati xalqaro maydonda ham eʼtirof etilmoqda. Times Higher Education (THE) xalqaro reyting tashkiloti tomonidan 2026-yilda eʼlon qilingan hisobotga koʻra, Oʻzbekistonning 24 ta oliy taʼlim muassasasi qatorida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ham dunyoning “Top-1000” talik oliy taʼlim muassasalari roʻyxatidan oʻrin oldi. Ushbu natija universitet jamoasining koʻp yillik mehnati,

kasi Prezidenti nomli davlat stipendiylari hamda 1 nafar talaba Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti grantiga ega boʻldi. Bundan tashqari, olim qizlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida har oʻquv yili bir nafar talabaga “Olmaxon Hayitova” nomli stipendiya taqdim etilib kelinmoqda.

Bugungi globallashuv davrida oliy taʼlim muassasasining xalqaro hamkorlik aloqalari uning rivojlanish darajasini belgilovchi eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shu maʼnoda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy oliy taʼlim muassasalari va ilmiy markazlar bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash ustuvor yoʻnalish sifatida izchil davom ettirilmoqda.



va akkreditatsiyadan oʻtkazish bilan shugʻullanadi.

Xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlar professor-oʻqituvchilar va talabalar akademik mobililigid ham yaqqol namoyon boʻlmoqda. Joriy oʻquv yilida 60 nafardan ortiq professor-oʻqituvchilar Xitoy, AQSh, Rossiya, Vengriya, Turkiya, Qozogʻiston, Tojikiston va Qirgʻiziston kabi davlatlarning nufuzli texnika universitetlarida malaka oshirdilar, stajirovkalarda qatnashdilar hamda xalqaro ilmiy anjumanlarda oʻz ilmiy ishlarni kengaytirish, xorijiy oliy taʼlim muassasalari va ilmiy markazlar bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash ustuvor yoʻnalish sifatida izchil davom ettirilmoqda.

Bugungi globallashuv davrida oliy taʼlim muassasasining xalqaro hamkorlik aloqalari uning rivojlanish darajasini belgilovchi eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shu maʼnoda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xorijiy oliy taʼlim muassasalari va ilmiy markazlar bilan oʻzaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash ustuvor yoʻnalish sifatida izchil davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning ilm-fan bilan shugʻullanishi va zamonaviy kasblarni egallashi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida universitetda oʻnlab tanlovlar, sport musobaqalari, maʼnaviy-maʼrifiy uchrashuvlar va turli yoʻnalishdagi toʻgaraklar tashkil etilyapti. Mazkur jarayonlarda talabalar keng jalb qilinib, turli sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan iqtidorli yoshlar muntazam ragʻbatlantirib borilmoqda.

Oʻquv yilining boshida “Maʼrifat ulashib” loyihasi doirasida Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzolari, taniqli adabiyotshunoslari, tarjimonlar va shoiralar bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu uchrashuvlar yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, badiiy tafakkurini boyitish va adabiyotga mehri oshirishga xizmat qildi. Kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida ilk bor “Rektor kubogi” musobaqasi tashkil etildi. Mazkur tanlovda 100 nafardan ortiq kitobsevar talaba ishtirok etdi. Yakunda 10 nafar eng faol va bilimdon ishtirokchi pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Qayd etish kerak, 2025-2026-oʻquv yili universitet jamoasi uchun unutilmas yutuqlarga boy boʻldi. Oʻquv yili boshida

universitet dotsenti Asliddin Shodiyev respublika muhandislik koʻrik-tanlovida ishtirok etib, “Eng yaxshi ixtiro” nominatsiyasida 1-oʻrinni qoʻlga kiritdi hamda “Prezident sovgʻasi” – “BYD” avtomobil bilan taqdirlandi. Oʻquv yili yakunida universitet jamoasi yana bir shunday quvonchli voqeani nishonladi. “Kimyoviy texnologiya” kafedrasida katta oʻqituvchisi Hayot Istamov Prezidentimiz qarori bilan “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu yuksak eʼtirof nafaqat yosh ustozlarning shaxsiy yutuqi, balki universitet ilmiy-pedagogik jamoasining fidokorona mehnati va yurt ravnaqi yoʻlidagi xizmatlariga berilgan munosib bahodir.

30 yillik tarix davomida bosib oʻtilgan sharaflari yoʻl, qoʻlga kiritilgan yutuqlar va xalqaro eʼtiroflar ortida minglab professor-oʻqituvchilar, olimlar, xodimlar, talabalar va bitiruvchilarning fidokorona mehnati mujassam. Aynan ana shu jamoaviy saʼy-harakatlar universitetni mamlakatimizning eng nufuzli oliy taʼlim muassasalari qatoriga olib chiqmoqda.

Bugun Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professor-oʻqituvchilar jamoasi yanada yorqin manzillarni koʻzlagan. Zamonaviy laboratoriyalar, xalqaro standartlarga mos taʼlim dasturlari, innovatsion ilmiy ishlanmalar, isteʼdodli yoshlar va tajribali ustozlar uygʻunligi universitetning ertangi kuni yanada porloq boʻlishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

Zero, kelajakni bunyod etadigan kuch – bilimli insonlar, taraqqiyotning tayanchi esa ilm-fan va innovatsiyadir. Ana shunday ezigu maqsadlarni oʻz faoliyatining bosh mezoniga aylantirgan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bundan buyon ham Vatan ravnaqi uchun fidoyi muhandislar, salohiyatli olim va tashabbuskor yetakchilarni tarbiyalash yoʻlida yangi yutuqlar sari dadil odimlayveradi.

Baxtiyor MARDONOV,
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor.

■ Dolzarb mavzu

Mamlakatimizda muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keyingi yillarda barcha soha va yoʻnalishlarda keng koʻlamli islohotlar olib borilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasi Yangi Oʻzbekistonda rivojlanishning yangi bosqichini boshlab berdi. Inson qadriini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish uning birinchi maqsadi etib belgilangan.



XALQNI ROZI QILISH – USTUVOR VAZIFA

Ushbu xayrli ishlar ortida, albatta, ehtiyojmand aholi qatlamining dardiga darmon boʻlish, ularning muammolariga ijobiy yechim topish, hayot sifatini yaxshilashdek ulugʻvor maqsadlar mujassam. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, tasdiqlangan qabul rejasini, muntazam oʻtkazilib kelinayotgan qabullar, murojaatlar bilan ishlashning “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili xalqimiz hayoti va manfaatiga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, qonunosti hujjatlar, farmon va qarorlar asosida bu borada aniq mezonlarni belgilab olganmiz. Shaxsiy va sayyor qabullar, ochiq muloqotlar oʻtkazish rejasini ishlab chiqilgan. Murojaatlar ijrosini soʻzsiz taʼminlash, ular monitoringi, sarhisobi samarali yoʻlga qoʻyilgan. Har bir murojaat ochiqlik va adolatparvarlik tamoyili, tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida olib borilmoqda.

Hayot davom etar ekan, aholi orasida muammoni paydo boʻlaveradi. Bu tabiiy hol. Bunda, kimdir ijtimoiy himoyaga, koʻmakka ehtiyoj sezadi. Albatta, bunday pallada har bir murojaatga eʼtiborli boʻlish, odamlar ogʻirini yengil qilish, ularning huquqlarini taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, joriy yilning oʻtgan yarim yilligida kombinat rahbariyatiga jami 1268 ta, virtual va xalq qabulxonalari orqali 656 ta murojaat kelib tushgan hujjatlar, farmon va qarorlar asosida taʼminlandi. Ularning 252 tasi ogʻzaki, 345 tasi yozma va 15 tasi elektron tarzda kelib tushgan murojaatlardan iborat.

Virtual va xalq qabulxonalaridan kelib tushgan murojaatlarning 554 tasi qanoatlanirildi. Shundan, 130 tasi ijobiy hal etildi, 424 tasiga huquqiy maʼlumot berildi. Maʼlumot oʻrnida aytish joizki, murojaatlarning 246 tasi ishga joylashish, 155 tasi mehnat va bandlik, 63 tasi taʼlim, 52 tasi ijtimoiy himoya, 17 tasi sogʻliqni saqlash, 10 tasi ish haqi, 3 tasi pensiya, qolgan 56 tasi har xil ma-

salalardagi murojaatlarni tashkil etadi.

Olti oy davomida 63 nafar fuqaro “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori tomonidan, 72 nafar fuqaro bosh direktor oʻrinbosarlari tomonidan qabul qilindi.

Davlatimiz Rahbari huzurida 2026-yil 4-mart kuni Xalq murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga koʻtarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilishga bagʻishlab oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida idora va tashkilot rahbarlari ning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini koʻrib chiqishda birinchi rahbarning shaxsiy masʼuliyati taʼminlanishi, aholi murojaatlarini koʻrib chiqishni asossiz ravishda oʻrinbosarlar va tizim tashkiloti rahbarlariga yuklash amaliyotiga chek qoʻyib, murojaatlar yuzasidan asoslangan qarorlarni birinchi rahbar tomonidan qabul qilinishi hamda ularning ijrosi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatilishi aytib oʻtiladi. Ushbu videoselektor yigʻilishida aytib oʻtilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan boʻlinmalar rahbarlari murojaatlarni koʻrib chiqish va ular ijrosini oʻz nazoratlariga olsalar, bizingnacha, maqsadga muvofiq boʻladi.

Shuni quvonchlikli, olib borayotgan ishlarimiz samarasidan ehtiyojmand yurtodoshlarimiz cheksiz bahra olishmoqda. Zotan, odamiylik mezonini yaxshilikdan boshlanadi. Albatta, bugun olib borilayotgan ishlarining zamirida oddiy haqiqat mujassam. Jumladan, inson manfaatlarini taʼminlash - oliy qadriyat ekanligi, odamlarimizning hayot darajasini oshirish, ularga farovon hayot tuhfa etish, jamiyatdan rozi boʻlib yashashlariga sharoit yaratish - bosh maqsaddir. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham ana shu ezigu maqsadga qaratilgan.

Shunday ekan, barchani odamlarga yaxshilik qilish, ularga har jabhada yelkadosh boʻlib, fikrlarini tinglash, muammolarini hal etishga yaqin koʻmakdosh boʻlishga chorlab qolamiz!

Shavqiddin IDIYEV,
Jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari bilan ishlashni nazorat
qilish va muvofiqlashtirish boʻlimi
boshligʻi.



izchil islohotlari va xalqaro standartlarga mos rivojlanish strategiyasining amaliy samarasidir.

Universitetda talaba yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ilm-fan va innovatsion faoliyatga keng jalb etish maqsadida 10 dan ortiq ilmiy toʻgaraklar samarali faoliyat yuritmoqda. Shulardan biri — “Sunʼiy intellekt va hisoblash laboratoriyasi (CAIL)” yosh ixtirochilar toʻgaragi alohida eʼtiborga loyiqdir. Mazkur laboratoriyada talabalar 3D-printerlar, dron texnologiyalari, zamonaviy nanoqurilmalar hamda dasturiy platformalar asosida sanoat va ijtimoiy sohalaridagi dolzarb muammolarga innovatsion yechimlar yaratish ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Mazkur toʻgarak faoliyati qisqa vaqt ichida oʻzining amaliy natijalarini namoyon etdi. Xususan, laboratoriya-ni bir guruh aʼzolari “Mirzo Ulugʻbek vorislari” respublika tanloviga gʻoliblikni qoʻlga kiritib, universitet ilmiy salohiyatining yana bir yorqin namunasini namoyish etdilar.

Universitetda iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va ularning ilmiy salohiyatini ragʻbatlantirish doimiy eʼtibordir. Xususan, 2025-2026-oʻquv yilida 6 nafar iqtidorli talaba Oʻzbekiston Respubli-

Har yili universitetda 10 ga yaqin xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilishi ilmiy fikrlar almashinuvi, zamonaviy tadqiqot natijalarini muhokama qilish hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim maydon vazifasini oʻtamoqda. Xususan, oʻtgan oʻquv yilida “Zarafshon mintaqasini kompleks-innovatsion rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman oltinchi marotaba muvaffaqiyatli tashkil etildi. Mazkur nufuzli anjuman Zarafshon mintaqasining kompleks innovatsion rivojlanishi bilan bogʻliq dolzarb masalalarni muhokama qilish, ilmiy tajriba almashish hamda yangi hamkorlik yoʻnalishlarini belgilash uchun muhim ilmiy platformaga aylandi.

2025-2026-oʻquv yilida universitetning 6 ta taʼlim dasturi Germaniyaning nufuzli ACQUIN xalqaro agentligi tomonidan muvaffaqiyatli akkreditatsiyadan oʻtkazildi. Natijada mazkur taʼlim dasturlari boʻyicha xalqaro akkreditatsiya sertifikatlarining amal qilish muddati 2032-yilgacha belgilandi. ACQUIN Germaniyada joylashgan nufuzli xalqaro tashkilot boʻlib, oliy taʼlim dasturlarining sifatini baholash, ularning xalqaro standartlarga muvofiqligini ekspertiza qilish

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

Ko‘pincha mardlik haqida so‘z ketganda, ko‘z oldimizda yovga qarshi mardonavor kurashgan, g‘alabaga erishgan jasorat egalari gavdalanadi. Kashfiyotlar ustida tinimsiz izlanish, ilm yo‘lida uchragan qiyinchiliklarni matonat bilan yengish, insoniyat manfaatiga xizmat qiladigan yangiliklar yaratish ham chinakam mardonavorlikdir. Yaqindagina “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlangan navoiylik yosh olim Hayot Istamovning hayot yo‘li ham ana shunday izlanish va ilmga sadoqatning yorqin namunasi bo‘lmoqda, deyish mumkin.

YOSH OLIM MEHNATI MUNOSIB BAHOLANDI

Hayot Istamov 1996-yil Navoiy shahrida tug‘ilgan. Otasi Yo‘lchi Haydarov “Navoiydonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishchi, onasi Iqbol Toirova esa Navoiy kon-metallurgiya kombinati Tibbiy-sanitariya qismida hamshira sifatida faoliyat yuritadi. Bu oddiy oilada ikki farzand ulg‘aygan – Hayot va uning ukasi.

– Ilm yo‘lini tanlashimda ota-onamning xizmatlari, bergan tarbiyalari muhim ahamiyatga ega. Tabiiy fanlarga yo‘naltirgan aynan ular, – deydi qahramonimiz.

Bu oddiy jumla zamidida ota-onaning farzand qalbiga singdirgan ishonchi, mehnatsevarlik va ilmga hurmat kabi ulug‘ qadriyatlar mujassam aslida. Hayot Navoiy shahridagi 2-maktabda tahsil olarkan, kimyo faniga ko‘proq qiziqardi. Kimyo fani o‘qituvchisi Feruza Kenesovaning har bir darsi unga o‘zgacha maroq bag‘ishlardi. 2012-yilda maktabni tamomlagach, Navoiy texnika va iqtisodiyot kollejida tahsil oldi. Bu yillarda esa yana bir ustoz – Ulug‘bek Muzaffarov uning ilmga o‘lgan qiziqishini yanada mustahkamladi. Endi Hayotning oldida ikki yo‘l turardi: biri tibbiyot, ikkinchisi kimyo!

Kimyo fanida hali kashf etilmagan sirlar, yechilishi lozim bo‘lgan masalalar ko‘pligini anglagan bo‘ljak olim ilm yo‘lini tanladi. 2015-yilda kimyo fanidan xalqaro olimpiadada g‘olib bo‘ldi. Mazkur g‘alaba unga yana bir katta imkoniyat eshigini ochdi. Hayot Istamov Qozon milliy tadqiqot texnologiya universiteti talabasi bo‘ldi.

– Qozon shahri organik kimyo fanining dunyo markazlaridan biri sanaladi, – deydi H.Istamov. – Men tahsil olgan universitetda jahonga tanqli kimyogar olimlar faoliyat olib borishgan. Abituriyentlik davrimda “Umumiy va noorganik kimyo” darsligi eng sevimli kitobim edi. Aynan shu darslik muallifi o‘zim o‘qigan kafedrada faoliyat olib borganini bilgach, hayratga tushganman. Tadqiqotchi olim sifatida shakllanishimda Qozondagi talabalik yillarim muhim ahamiyat kasb etdi.

2015–2019-yillar davomida Qozon milliy tadqiqot texnologiya universitetida tahsil olgan talaba uchun auditoriyadagi darslarning o‘zi kamlik qildi. U ilmiy to‘garaklarda qatnashdi, laboratoriyalarda izlandi, tajribalar o‘tkazdi, xalqaro olimpiada va tanlovlarda o‘z bilimini sinab ko‘rdi. Qozondagi muvaffaqiyatlari e‘tiborsiz qol-

madi. Yosh olim Tatariston Respublikasi rahbari tomonidan ham e‘tirof etildi. Bu esa uning ilmiy salohiyatiga berilgan yuksak baho edi. Vatanga qaytgach, Hayot Istamov ilmiy faoliyatini davom ettirishni o‘z oldiga qat‘iy maqsad qilib qo‘ydi.

2020-2022-yillarda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida “Organik moddalarning kimyoviy texnologiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichida tahsil oldi. Laboratoriyada o‘tgan kunlar, tajribalar, muvaffaqiyatsizliklardan chiqarilgan xulosalar va yana yangi urinishlar... Ana shu mehnat 2025-yilda o‘z samarasini berdi. Hayot Istamov texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2026-yildan esa Kimyo-metallurgiya fakultetining “Kimyoviy texnologiya” kafedrasida katta o‘qituvchi sifatida faoliyat boshladi.

Uning nazariida olimning haqiqiy vazifasi insoniyat muammolariga yechim topishdir. Shu maqsadda u tanqli kimyogar, professor Bahodir Muhiddinov ilmiy maktabida tadqiqotlarini izchil davom ettirmoqda. Bir necha yildan buyon ular sintetik polimerlar asosida bioparchalanadigan polimer-kompozitsion materiallar yaratish ustida ish olib borishayapti.

– Ustozimiz bilan birga sintetik polimerlar tarkibiga bioparchalanadigan komponent qo‘shish orqali yangi mahsulot yaratdik, – deydi H.Istamov. – Bu yo‘nalishda dunyo olimlari faol ishlamoqda. Biz taklif qilayotgan usul boshqa texnologiyalarga nisbatan arzon va uni ishlab chiqarishga joriy etish ham mumkin. Hozir laboratoriya sharoitidagina mahsulot ishlab chiqaraymiz. Bular asosan bir martalik ishlatiladigan idishlar. Mahsulot ko‘pi bilan ikki yilda tabiatda to‘liq parchalanib ketadi. Mazkur ishlanma uchun patent olish ishlari yakuniy bosqichga yetgan. Bu kelgusida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qiladigan samarali mahalliy ilmiy ishlanmalardan biridir.

Ilm-fan yo‘li faqat laboratoriyalar yoki konferensiya zallari bilan chegaralanmaydi. Olimning haqiqiy qadri uni uning ortidan ergashayotgan shogirdlari, tarbiyalayotgan yoshlari va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hisssasi belgilaydi. Hayot Istamov yosh pedagog sifatida auditoriyaga kirganida talabalar oldida shunchaki ma‘ruza

o‘qimaydi. U ularga ilmning zavqini, izlanishning qadriini, tajribaning ahamiyatini tushuntirishga harakat qiladi.

Qisqa vaqtda Hayot Istamovning ilmiy faoliyati salmoqli natijalar bilan boyidi. Bugungi kunga qadar uning 30 dan ortiq ilmiy maqolalari, o‘quv-uslubiy ishlari va ilmiy nashrlari chop etilgan. 2026-yil 30-iyun – Yoshlar kuni Hayot Istamov hayotida unutilmas voqea bo‘ldi. Prezidentimiz Farmoni bilan u “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti



bilan taqdirlandi. Bu mukofot nafaqat bir insonning mehnatiga berilgan baho, balki ota-onaning tarbiyasi, ustozlarning zahmati, ilmiy rahbarlarning ishonchi, hamkasblarning yelkadoshligiga e‘tirof sanaladi. Yurt rahbari bilan uchrashuv va mukofotni qabul qilib olish jarayoni hamda so‘zlar ekan, Hayotning ovozida hali-hanuz o‘sha hayajon seziladi:

– Bu taassurotlar hech qachon xotiramdan o‘chmasa kerak. Muhtaram Prezidentimiz har bir yoshning yutuqlari haqida alohida gapirib, “Sizlarning ortlaringizda men turibman”, deganlarida ayniqsa to‘lqinlanib ketdim! – deydi u.

Hayot Istamovning ilmga vobasta hayot yo‘li bir haqiqatni anglatadi: orzularning amalga oshishi nafaqat iste‘dod, balki intizom, mehnatsevarlik va ilmga sadoqat bilan chambarchas bog‘liq. Muvaffaqiyat cho‘qqisiga eltadigan eng ishonchli yo‘l ham aynan shudir.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti ilmi, izlanuvchan va tashabbuskor yoshlar bilan barpo etiladi. Ana shunday yoshlar safida Hayot Istamovning borligi quvonarli. Chunki u ertangi kun ilmining ham ishonchli vakillaridan biridir. Zero, haqiqiy mard o‘g‘lon nafaqat jasorati, balki aql-zakovati, ilmga sadoqati va Vatani ravnaqi yo‘lida qilayotgan fidokorona mehnati bilan ham el e‘tirofiga sazovor bo‘lib boraveradi...

Ozod MUSTAFOYEV,
O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a‘zosi.

■ Buni bilish muhim

KASALLIK NAFAQALARINI TO‘LASHNING YANGI TARTIBI

u joriy yilning 1-iyulidan amalda bo‘ladi

2026-yil 1-iyuldan boshlab O‘zbekistonda vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini tayinlash va to‘lashning yangi tartibi kuchga kirdi. Jamiyatimizning

barcha xodimlari hali o‘zgarishlar bilan tanishib chiqmagan, shuning uchun sizdan ma‘lumotlarni diqqat bilan o‘rganib chiqishingizni va hamkasblaringizga etkazishingizni so‘raymiz.

ENDI KASALLIK NAFAQALARINI KIM TO‘LAYDI?

Ilgari vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to‘liq ish beruvchi tomonidan to‘lanar edi. Endi to‘lovlar ish beruvchi va Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi (DISJ) o‘rtasida taqsimlanadi:

VAQTINCHALIK MEHNATGA LAYOQATSIZLIK NAFAQASI QANDAY HISOBLANADI?
Nafaqa miqdori xodimning ish (sug‘urta) stajiga bog‘liq:
• sug‘urta staji 6 oydan 96 oygacha bo‘lgan xodimlarga - o‘rtacha ish haqining 60 foizini tashkil etadi;

• Bir kalendariy yilidagi kasallikning dastlabki 5 kuni uchun nafaqa ish beruvchi – “NKMK” AJ tomonidan to‘lanadi;
• Oltinchi kunidan boshlab nafaqa Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan to‘lanadi.

IMTIYOZLI TOIFADAGI XODIMLAR UCHUN TO‘LOVLAR

Imtiyozli toifaga kiruvchi xodimlarga 20 foizlik qo‘shimcha to‘lov mavjudligi belgilandi, ya‘ni bularga quyidagilar kiradi:
• I va II guruh nogironligi bo‘lgan xodimlar;
• qaramog‘ida 4 va undan ortiq farzandi bo‘lgan xodimlar;

• nogironligi bo‘lgan farzandni tarbiyalayotgan xodimlar.
Shunday qilib, ko‘rsatilgan toifalar uchun nafaqa miqdori sug‘urta stajiga qarab o‘rtacha ish haqining 80% yoki 100% ni tashkil qilishi mumkin.

DAVLAT IJTIMOYIY SUG‘URTA JAMG‘ARMASI TOMONIDAN NAFAQANI TO‘LAB BERISH MUDDATLARI

Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi quyidagi jadvalga muvofiq to‘lovlarni amalga oshiradi:
• o‘yning 1-kunidan 15-kuniga qadar rasmiylashtirilgan mehnatga layoqatsizlik nafaqasi jo-

riy o‘yning 25-kuniga qadar to‘lab beriladi;
• o‘yning 16-kunidan keyin rasmiylashtirilgan mehnatga layoqatsizlik nafaqasi keyingi o‘yning 10-kuniga qadar to‘lab beriladi.

CHEKLOVLAR

Quyidagi cheklovlar hisobga olinishi kerak:
• vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini to‘lash mehnatga qobiliyatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan butun davr uchun, biroq bir kalendariy yil mobaynida 182 kalendariy kundan ortiq

bo‘lmagan davr uchun amalga oshiriladi.
• nafaqa hisoblanadigan maksimal ish haqi miqdori Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoring (MHTEKM) 10 barobari bilan cheklanadi.

HOMILADORLIK VA TUG‘ISH NAFAQASI

2026-yil 1-yanvardan boshlab homiladorlik va tug‘ish nafaqalari ish beruvchi tomonidan emas, balki Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tomonidan to‘lanadi.

Nafaqa miqdori ayolning umumiy sug‘urta stajiga bog‘liq:

• 61 va undan ortiq oy sug‘urta stajiga ega bo‘lganda – o‘rtacha ish haqining 100 foizi;
• 25 oydan 60 oygacha sug‘urta stajiga ega bo‘lganda – o‘rtacha ish haqining 85 foizi;
• 10 oydan 24 oygacha sug‘urta stajiga ega bo‘lganda – o‘rtacha ish haqining 75 foizi.

NAFAQANI OLISHNING ASOSIY SHARTLARI

• Homiladorlik va tug‘ish nafaqasini olish uchun oxirgi ish joyida kamida 6 oylik uzluksiz sug‘urta staji talab qilinadi.
• nafaqani hisoblashda o‘rtacha oylik ish

haqining mehnatga haq to‘lash eng kam miqdoring (MHTEKM) 10 baravaridan oshmagan qismi inobatga olinadi.

TO‘LIQ ELEKTRON RASMIYLASHTIRISH

Nafaqalarni rasmiylashtirish jarayoni to‘liq elektron formatga o‘tkazilgan. Elektron mehnatga layoqatsizlik varaqalari tibbiyot muassasalari tomonidan rasmiylashtiriladi va yopiladi,

shundan so‘ng ma‘lumotlar avtomatik ravishda davlat axborot tizimlariga va my.mehnat.uz platformasiga yuboriladi.
“NKMK” AJ Moliya departamenti.

■ O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti xodimlari kuniga

MATONATLI KASB EGALARI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

– E‘tiborli jihat, kombinatda amalga oshirib kelinayotgan mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha jami 97 ta vagonning xizmat muddati uzaytirildi. Buning natijasida vagonlarni navbatdan tashqari ta‘mirlash ishlariga jalb etilishi oldingi yillarga nisbatan qariyb 70 foizga qisqardi. Ag‘darma-vagonni chetdan xarid qilish narxi 3 milliard 202 million 744 ming so‘mdan ortiqroq bo‘lsa, uni Vagon xo‘jaligi mahalliyashtirish sexida yig‘ish uchun atiga 522 million so‘mdan ortiqroq mablag‘ sarflanayapti, – deydi Temiryo‘l transporti boshqarmasi bosh muhandisi Suxrobjon Nazarov.

Hozirgi kunda vagonlarni ta‘mirlash uchun zarur ehtiyoq qismlarni Navoiy mashinasozlik zavodida tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

2024-yilda 22 dona ag‘dargichli vagon, 11 dona vagon sistemalar xarid qilindi. 2025-yilning birinchi olti oyi mobaynida 15 dona zamonaviy yo‘lovchi tashish vagonlari xarid qilindi, Markaziy kon boshqarmasining turli sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan 2,5 ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilarni har kuni Zarafshon shahridan “Bessopan” sanoat maydoniga ishga olib kelish va aksincha “Bessopan” sanoat maydonidan Zarafshon shahriga ishdan olib qaytishda qulayliklar yaratildi.

LOKOMOTIV XIZMATI – MUHIM TARMOQ

Lokomotiv xizmati jamoasining asosiy vazifasi oltin tarkibli ma‘danni tashish jarayoniga jalb qilingan teplovozlarga texnik xizmat ko‘rsatish, ularni doimo soz hamda ishga shay holatda bo‘lishini ta‘minlashdan iborat.

Lokomotiv xizmati ikkita lokomotiv deposidan tashkil topgan bo‘lib, ular “Zarafshon” hamda “Bessopan” maydonlarida joylashgan. Lokomotiv deposi “Zarafshon” maydoni harakat tarkibini mukammal ta‘mirlash uchun Temir yo‘l transporti boshqarmasining asosiy ta-



mirlash bazasi hisoblanadi. Bu yerda lokomotivlarni joriy ta‘mirlashdan tortib, to‘liq hajmdagi kapital ta‘mirlashgacha bo‘lgan ishlar amalga oshiriladi.

“Bessopan” deposi maydonida esa 2-gidrometallurgiya zavodiga ma‘danni tashish jarayonida ekspluatatsiyada bo‘lgan harakat tarkibiga kichik hajmdagi, shu bilan birga belgilangan qisqa muddatlarda tez va sifatli xizmat ko‘rsatish amalga oshiriladi. Boshqarmada yaratilgan shart-sharoitlar va qulay inf-ratuzilmalar ta‘mirlash ishlarining sifatli va to‘laqonli bajarilishi uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

O‘tgan yillar davomida olib borilgan amaliy ishlar hamda mahalliyashtirish dasturi asosida teplovozlarni joriy hamda kapital ta‘mirlash ishlari korxonaning o‘zida amalga oshirilmoqda. Korxonadagi teplovozlarni ta‘mirlash uchun zarur bo‘lgan, mehnat unumdorligi va ta‘mirlash sifatini oshirishda qo‘l keladigan ko‘p turdagi uskunalar xarid qilindi.

Yillik rejani o‘z vaqtida bajarish maqsadida Lokomotiv xizmati teplovozlar parki yildan-yilga kengayib, zamonaviy lokomotivlar bilan yangilanmoqda. 2020-2026 yillarda sakkizta magistrat teplovoz xarid qilindi. Bugungi kunga kelib, teplovozlar soni 35 taga yetdi.

Boshqarmada xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish natijasida bir sutkada o‘rtacha 160 ming tonnadan ortiq tog‘ massasi tashishga erishilyapti.

SULOLA AN‘ANASI DAVOM ETADI

Xalqimizda “Otasiga ko‘ra – bolasi, daraxtiga ko‘ra – mevasi” degan naql bor. Bu hikmat zamidida chuqur ma‘no mujassam. Zero, inson o‘z mehnati bilan nafaqat ro‘zg‘or tebratadi, balki kelajak avlod uchun hayot maktabi, ma‘naviy meros va munosib yo‘l qoldiradi.

Temir yo‘l transporti tizimi ana shunday mehnat an‘analarga boy sohalardan biri hisoblanadi. Bu tizimda yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida bir oilaning uch avlodi mehnat qilishi nafaqat bir sulola, balki butun soha uchun faxr va ibrat namunasidir.

Sulolalar faoliyat yuritayotgan korxonalarda jamoaviy muhit barqaror, ish sifati va mehnat unumdorligi yuqori bo‘ladi. Chunki bunday oilalarda mehnat madaniyati, kasbga hurmat va jamoaga sadoqat bolalikdan tarbiyalanadi.

Toshpo‘lot Mo‘minov Temir yo‘l sohasida har bir texnologik jarayon katta mas‘uliyat talab qilishini farzandlariyu shogirdlariga tushuntirib keldi. U 35 yil-

lik mehnat faoliyatidan so‘ng temir yo‘l tizimidan nafaqaga chiqqan. Hozirda kombinat faxriysi. Uning o‘g‘li Akmal Mo‘minov Shimoliy kon boshqarmasining Temir yo‘l transporti boshqarmasi bosh muhandisi, uning nevarasi Abdulaziz Mo‘minov yaqinda oliy o‘quv yurtini tamomlab, boshqarmada chilangar bo‘lib ish boshladi. Yarim asrdan ziyod vaqt davomida sohada faoliyat ko‘rsatgan uch avlod vakillarining mehnat yo‘li alohida ahamiyatlidir. Katta avlod og‘ri sharoitlarda mehnat qilib, sohaning mustahkam poydevorini yaratgan bo‘lsa, ikkinchi avlod uni rivojlantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo‘shdi. Bugungi yosh avlod esa raqamli texnologiyalar, zamonaviy texnikalar va innovatsion yechimlar asosida ushbu sharaflari an‘anani davom ettirmoqda.

USTOZ MASHINIST MAKTABI

Hayotda shunday insonlar bo‘ladiki, ularning mehnat yo‘li faqat shaxsiy yutuqlari bilan emas, balki tarbiyalagan shogirdlari va el-yurtga keltirgan nafi bilan o‘lchanadi. Temir yo‘l transporti tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilib kelayotgan tajribali teplovoz mashinisti Ixtiyor Rahimov ana shunday insonlar sirasiga kiradi.

Qariyb o‘ttiz yildan ziyod mehnat faoliyati davomida u o‘z kasbini yuksak mas‘uliyat va fidoyilik bilan ado etib kelmoqda. Temir yo‘l sohasi har kim ham eplay oladigan kasb emas. U mashinistdan mustahkam iroda, chuqur bilim, yuqori malaka, intizom va eng muhimi, insonlar hayoti uchun javobgarlik hissi-ni talab qiladi. Ixtiyor Rahimov o‘zining kasbiy mahorati va boy tajribasi bilan mehnat jamoasida alohida hurmat qozongan.

Bugun Ixtiyor aka tarbiyalagan o‘nlab shogirdlar temir yo‘l transporti tizimining turli bo‘linmalarida samarali mehnat qilib kelmoqdalar. Ular ustozidan nafa-



qat lokomotiv boshqarish sirlarini, balki halol mehnat qilish, intizomli bo‘lish, jamoaga sadoqat va kasbga muhabbat tuyg‘ularini ham o‘rgandilar. Bu esa har qanday ustoz uchun yuksak e‘tirof va eng katta boylikdir. Ixtiyor Zayniddinovichning shogirdlari, teplovoz mashinistlari Bobur Rasulov, Shuhrat Muhammadiev, Tolib Ortiqov, Shavqiddin Temirov, Rahim Ahmedovlar sohada qariyb o‘n yillik tajriba to‘plab qo‘yishdi. Ular har smenada o‘rtacha olti ming tonnaga yaqin ma‘danlarni tashiyotganligini hisobga olsak o‘tgan davr mobaynida qancha ma‘danni temir izlar orqali zavodga tashib berishganini tasavvur etish qiyin emas.

I.Rahimov bugun ham tajribali mashinist sifatida yoshlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, ularni mas‘uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Chunki u, temir yo‘l sohasining ertangi kuni bilimli, malakali va fidoyi yoshlar ko‘lida ekanligini yaxshi anglaydi.

Insonni ulug‘laydigan, uni el orasida qadr-qimmatga ega etadigan eng bu-

Azamati ZARIPOV.

OMMALASHIB BORAYOTGAN ZAMONAVIY SPORT TURI

Gandbol dunyo bo'yicha keng tarqalgan sport turi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bu sport turini rivojlantirish, zamonaviy sharoitlarni yaratish, xalqaro arenalarda yurtimiz sharafigini munosib himoya qilishga qodir yosh gandbolchilarni tarbiyalash, sportchilarni ruhlantirishga qaratilgan chempionatlar, turnirlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Joriy yilning 19-26-iyul kunlari Navoiy kon-metallurgiya kombinati kasaba uyushmasi Kengashi tarkibidagi gandbol klubi nufuzli sport musobaqasiga mezbonlik qildi. Navoiy shahridagi "So'g'diyona" jismoniy tarbiya va sport saroyi bazasida zamonaviy gandbol zalida o'smir yigit va qizlardan iborat 14 ta jamoa ishtirokida gandbol bo'yicha O'zbekiston chempionatining 4-bosqich o'yinlari bo'lib o'tdi. Bunda, 500 nafarga yaqin sportchi o'g'il-qizlar qatnashdi. Sakkiz kun davom etgan bellashuvlarda hududlardan kelgan jamoalarning mahoratli sportchilari chempionlikni qo'lga kiritish uchun o'zaro kuch sinashdilar. Musobaqalar murosasiz kurashlar, yorqin lahzalarga boy bo'ldi. Chempionat yurtimizda gandbol bo'yicha mahoratli sportchilar, professional jamoalar shakllanib kelayotganligini ko'rsatdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, o'g'il bolalar o'rtasida Xorazm viloyati jamoasi 1-o'rin, Surxondaryo viloyati jamoasi 2-o'rin, Andijon viloyati jamoasi 3-o'rinini qo'lga kiritdi. Qizlar o'rtasida esa Navoiy viloyati jamoasi 1-o'rin, Namangan vi-

loyati jamoasi 2-o'rin, Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasi 3-o'ringa sazovor bo'ldi. G'olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimida O'zbekiston gandbol federatsiyasi raisi Quvondiq Sanaqulov yosh g'oliblarni qo'lga kiritgan yutuqlari bilan tabrikladi va kelgusi musobaqalarda bundan ham yuqori natijalarni qo'lga kiritishiga omad tiladi. O'z jamoalarini ushbu nufuzli chempionatga tayyorlash va faol ishtirokini ta'minlash, buning uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishda Sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi rahbariyati va viloyatlar hokimliklarining munosib hisssasi borligini alohida ta'kidlash joiz. Navoiy kon-metallurgiya kombinati va kasaba uyushmasi Kengashi qo'llab-quvvatlashi natijasida bu sport turi tobora ommalashib bormoqda. Navoiy shahrida zamonaviy sharoitlarga ega gandbol zali qurib foydalanishga topshirilgani mazkur sport turiga qiziquvchilar imkoniyatlarini yanada kengaytirib yubordi.

Navoiy viloyati bosh treneri Husnidin Xolmurodov yetakchiligida hozirda 150 nafar ishtirokchi gandbol bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Mazkur maskanda kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan katta va kichik yoshdagi 6 ta erkaklar va xotin-qizlar klublari tashkil etilib, g'oyat qisqa davrda bu jamoalar respublikamiz oliy ligasida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi va nufuzli arenalarda NKMK sharafigini munosib himoya qilmoqda. Quvonarli jihati, ular orasidan Jahon kubogi sohiblari, gandbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolari, Osiyo va O'zbekiston chempionlari yetishib chiqdi. Asadbek Tolibov, Ruxshona Ro'ziyeva, Nasiba To'xtayeva, Xurshid Yakubov, Gulsanam Ahadova, Sevinch Rahmonova, Mushtariybonu Hamroyevalar shular jumlasidandir. Kelgusida ham bu sport turi bo'yicha munosib izdoshlar, yangi chempionlar yetishib chiqishiga ishonamiz. **Isroil RAHMATOV, Gandbol federatsiyasi raisi o'rinbosari.**

■ Ishlab chiqarish bo'linmalarida

MUHANDISLIK SALOHİYATINI MUSTAHKAMLOVCHI MUHIM BO'G'IN



Zamonaviy ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, harakat xavfsizligini ta'minlash va texnik salohiyatni mustahkamlash har qanday transport tizimining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. 2025-yilning dekabrda Markaziy kon boshqarmasi Temir yo'l transporti boshqarmasida ana shu maqsadda Texnik byuro tashkil etilgandi. Mazkur byuro temir yo'l transporti sohasida muhandislik yechimlarini takomillashtirish, etilayotgan loyihalarni o'z vaqtida bajarishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish, texnik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda byuro jamoasi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni yuksak mas'uliyat bilan bajarib, tarmoqning barqaror va xavfsiz ishlashini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoqda. Texnik byuro-ga tajribali mutaxassis Zafar Rahmonov rahbarlik qilib kelmoqda. Uning tashabbuskorligi, tashkilotchilik qobiliyati va

amaliy tajribasi jamoaning samarali faoliyat yuritishida muhim omil bo'lmoqda. Byuroning Murodjon Ro'ziyev, Dilshod Eshmurodov, Muhiddin Turdiboyev, Shavkat Isoyevlar kabi muhandis-texnologlari temir yo'l transportining yo'naltirishlari bo'yicha texnik yechimlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayon-

larini tahlil qilish, mavjud texnik vositalardan samarali foydalanish, profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etish hamda harakat xavfsizligini ta'minlash borasida sidqidildan mehnat qilmoqdalar. Mutaxassislarning bilim va tajribasi hamda hamjihatligi tufayli texnik masalalar o'z vaqtida hal etilmoqda, ishlab chiqarish samaradorligi izchil oshib bormoqda. Texnik byuroning faoliyati Lokomotiv va Vagon xo'jaligi, temir yo'l infratuzilmasi hamda ishlab chiqarish jarayonlarini yaxlit tizim sifatida muvofiglashtirishga xizmat qilayotgani e'tiborga loyiq. Bu esa korxonada texnik intizomni mustahkamlash va ishonchli transport xizmatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayapti. Texnik byuro jamoasi fidokorona mehnati, yuqori kasbiy mahorati va temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonlariga innovatsion yondashuvi bilan boshqarma rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Mazkur byuroning tashkil etilishi Temir yo'l transporti boshqarmasi faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu jamoaning bilim va salohiyati, zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyati hamda hamjihatligi kelgusida yanada yuqori natijalarga zamin yaratadi. Ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalar va xalqaro ilg'or tajribalarni amalioyot bilan uyg'unlashtirish orqali byuro nafaqat bugungi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarmoqda, balki kelajakda temir yo'l transportini yanada samarali, xavfsiz va raqobatbardosh tizimga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

Baxriddin SHARIPOV, MKB TYTBning texnik byurosi ishlab chiqarish bo'yicha muhandisi.

■ Yoz – 2026

Ayni paytda "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasi tasarrufidagi 11 ta maktab va shahar tashqarisidagi oromgohlarda bolalar hordiq chiqarmoqda. Ko'plab bolalar uchun yozgi ta'tilning eng yorqin timsoli – bu bolalar sog'lomlashtirish oromgohi. Bu erda har bir kun quvonch, do'stlik, ijodkorlik va qiziqarli mashg'ulotlarga boy o'tadi. Ana shunday maskanlardan biri – Paxtachi tumanida joylashgan "Bolajon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohidir. Bu yil ushbu oromgoh o'zining 65 yillik qutlug' yubileyini nishonlamoqda.



“BOLAJON” – BAXTLI BOLALIK HUDUDI



"Bolajon" zamonaviy sog'lomlashtirish maskanidir. Bu yerda beshta ikki qavatli va oltita bir qavatli shinam yotoq binolari mavjud, ko'p yillik daraxtlar butun hududga soya solib turadi. Oromgohning umumiy maydoni 14 gektarni tashkil etadi. Shundan 8 gektari manzarali daraxtlar va butalar bilan ko'kalamzorlashtirilgan.

Oromgoh pedagogik jamoasi tarkibiga bolalar bog'chalari va maktablarning tajribali pedagoglari, shuningdek, Navoiy davlat pedagogika universitetining eng iqtidorli talabalari jalb etilgan. Ular maxsus "Yosh yetakchi" tayyorgarlik maktabidan o'tib, bolalar bilan ishlash bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lilar. Shu bois oromgohda hech kim zerikmaydi – hatto tibbiyot xodimi qabulini kutayotgan vaqtda ham bolalar uchun qiziqarli mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

Oromgohga kelgan dastlabki kuniyq bolalar uning hududi va diqqatga sazovor joylari – kutubxona, yozgi sahna, basseyn hamda zamonaviy futbol maydoni bilan tanishtiriladi.

Men "Bolajon"ni juda yaxshi ko'raman, shuning uchun bu yerga ikkinchi yil dam olish uchun kelyapman, – deydi Imona Nematjonova. – Yetakchimiz Sevinch opa mehribon, xushchaqchaq, ajoyib hazillari bilan butun otryadga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Ijodiy faoliyat oromgoh hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Har kuni yozgi sahnada konsertlar, iqtidorlilar tanlovlari, musiqiy kechalar va teatrlashtirilgan chiqishlar o'tkaziladi. Bolalar katta ishtiyok bilan qo'shiq aytishadi, turli sahna ko'rinishlarini tayyorlaydilar. Bunday tadbirlar har bir bolaning iste'dodini namoyon etish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, dam oluvchilar turli sport musobaqalari va ijodiy tanlovlarda ham faol ishtirok etadilar.

Oromgohning ochilish marosimi uchun dugonalarim va yetakchimiz bilan birga raqs chiqishini tayyorladik, – deydi 3-otryad tarbiyalanuvchisi Arujan Bekbergenova. – Sahnada chiqish qilish menga juda yoqdi.

"Bolajon"da faoliyat yuritayotgan kulolchilik, rassomlik, biserdan bezak buyumlari tayyorlash hamda ingliz tili to'garaklari bolalar dam olishini yanada mazmunli va qiziqarli qiladi. Mashg'ulotlar qizlar va o'g'il bolalarning iste'dodini



kashf etish, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, ijodiy tafakkur va tasavvurini rivojlantirish, badiiy didini shakllantirishga yordam beradi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida bolalar o'yinlar orqali lug'at boyligini kengaytiradi, muloqot qilishni o'rganadi, turli vektorina va ijodiy topshiriqlarda qatnashadi, – deydi to'garak rahbari Nurxayot Ablaqulova. – Bu usul xotira va diqqatni rivojlantiradi, shuningdek, chet tillarini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Oromgohning yana bir o'ziga xos jihati – Buxorodan keladigan qo'g'irchoq teatri artistlarining chiqishlaridir. Har bir smenada ular qiziqarli sahna ko'rinishlari, turli qo'g'irchoqlar, rang-barang liboslar va jo'shqin musiqalardan iborat dasturlari bilan bolalarga unutilmas zavq bag'ishlaydilar. Yozgi mavsumning eng sevimli maskanlaridan biri, albatta, basseyndir. Cho'milish bolalarga beqiyos quvonch bag'ishlaydi, shu bilan birga, issiq yoz kunlarida yoqimli salqinlik hissini ham tuhfa etadi.

"Bolajon"da bolalar uchun yaratilgan sharoitlar yuqori darajada. Har bir otryadning yotoqxonalariga quvvatli konditsionerlar o'rnatilgan bo'lib, hatto eng issiq kunlarda ham bolalarning orom olib uxlashi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bolalarga har kuni yangi va sifati mahsulotlardan tayyorlangan to'yimli nonushta, tushlik, peshingi tamaddi, kechki ovqat hamda kechki yengil taom beriladi. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan oshxona bu jarayonning sifati va samarali tashkil etilishiga xizmat qilmoqda.

Oromgohning texnik xodimlari mehnatini tilga olmasdan "Bolajon" haqidagi hikoya to'liq bo'lmaydi. Jonkuyar

xodimlarning har kunlik mehnati tufayli oromgoh hududi doimo ozoda va fayzli saqlanadi, elektr energiyasi hamda suv uzluksiz yetkazib beriladi, daraxtlar va manzarali butalar esa muntazam parvarish qilinadi.

Juda muhim mehnat sohiblaridan yana biri – qator yillardan buyon "Bolajon"da faoliyat yuritib kelayotgan ovoz rejissori Vyacheslav Sanayevdir. Uning yuksak kasbiy mahorati barcha tadbirlarning muvaffaqiyatli o'tishi va bolalar uchun quvonchli dam olish muhiti yaratishda muhim o'rin tutadi. Turli konsert dasturlari uchun musiqiy kompozitsiyalar tayyorlash, fonogrammalar yozish, ovoz effektlarini joylashtirish

kabi ishlar aynan uning sa'y-harakatlari bilan amalga oshiriladi. O'z ishinin haqiqiy ustasi bo'lgan Vyacheslav Sanayev pedagoglar mehnatini ancha yengillashtiradi.

Har bir smena yakunida katta ekranda so'nggi ikki hafta davomida oromgoh hayotidan olingan foto va videolar asosida tayyorlangan film namoyish etiladi. Bolalar bu filmlarni katta qiziqish bilan tomosha qiladilar. Chunki unda o'zlarini, do'stlari va otryaddoshlarini yana bir bor ko'rish imkoniga ega bo'lalilar.

Ota-onalar farzandini oromgohga yuborish orqali unga shunchaki dam olish emas, balki beqiyos hayotiy tajriba o'ttirishini taqdim etadilar, – deydi "Bolajon" oromgohi direktori Zulayxo Adizova. – Chunki oromgoh bolaning har tomonlama kamol topishi uchun muhim muhit hisoblanadi. Bu yerda u mustaqil bo'lishni, tengdoshlari bilan muloqot qilishni, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni o'rganadi, dunyoqarashini kengaytiradi, yetakchilik qobiliyatini rivojlantiradi va yangi do'stlar orttiradi. Dam olishdan keyin ko'plab bolalar yanada ochiqko'ngil, tashabbuskor va o'ziga ishongan inson bo'lib qaytishadi.

"Bolajon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi – bu shunchaki dam olish maskani emas. Bu – baxtli bolalik hududi. Bu yerda bolalarning salomatligi mustahkamlanadi, iste'dodlar kashf etiladi va kichik orzular ushuladi. Aynan shu yerda yoz fasli haqiqatan ham yorqin, unutilmas va quvonchli xotiralarga boy davrga aylanadi. Shuning uchun ham har bir smenaning so'nggi kuniyq bolalarda yana shu oromgohga qaytish istagi paydo bo'ladi.

Sanjar QURBONOV.